

PEDAGOGIK JAMOANI BOSHQARISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA UNING TA'LIM-TARBIYA JARAYONI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDAGI ROLI

Kurbanov Muzaffar Ummatovich
Qo'qon davlat pedagogika instituti
Maktab menejmenti kafedrası katta o'qituvchisi
E-mail: economykspi@gmail.com, tel.: +998905502968

Annotasiya. Ta'limni tarbiyadan hech qachon ajratib bo'lmaydi. Ta'lim-tarbiya jarayonida mamlakatimiz, millatimiz, halqimizning buguni va ertangi kuni namoyon bo'ladi. Ta'lim-tarbiya tizimidagi muhim masalalarni hal etishda mamlakatimizning har bir maktabining pedagogik jamoasining o'rni kattadir. Maktablarni isloh qilish avvalo pedagogik jamoalarni isloh qilish, ularning o'quvchilar ta'lim-tarbiyasining yangi bosqichga olib chiqish bilan bog'liq. Ushbu maqolada ta'lim va tarbiyani tashkil etishda maktab pedagogik jamoani samarali boshqarish va uning asosiy xususiyatlari hamda roli tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: pedagogik jamoa, ta'lim samaradorligi, pedagogizasiya, ta'lim, pedagogik faoliyat, boshqaruv sub'yekti.

ОСОБЕННОСТИ УПРАВЛЕНИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКИМ КОЛЛЕКТИВОМ И ЕГО РОЛЬ В ПОВЫШЕНИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА

Курбанов Музаффар Умматович
Кокандский государственный педагогический институт
Старший преподаватель кафедры школьного менеджмента
E-mail: economykspi@gmail.com, tel.: +998905502968

Аннотация. Образование никогда не может быть отделено от воспитания. В процессе образования проявляется настоящее и завтрашний день нашей страны, нашей нации, нашего общества. Велика роль педагогического коллектива каждой школы нашей страны в решении важных вопросов в системе образования. Реформа школ в первую очередь связана с реформой педагогических сообществ, выводящих свое образование учащихся на новый уровень. В данной статье анализируется эффективное управление школьным педагогическим сообществом, его основные особенности и роль в организации образования и воспитании.

Ключевые слова: педагогическое сообщество, образовательная эффективность, педагогика, образование, педагогическая деятельность, субъект управления.

THE PECULIARITIES OF THE MANAGEMENT OF THE PEDAGOGICAL COMMUNITY AND ITS ROLE IN IMPROVING THE EFFECTIVENESS OF THE EDUCATIONAL PROCESS

Kurbanov Muzaffar Ummatovich
Kokand State Pedagogical Institute

Senior teacher of the Department of school management
E-mail: economykspi@gmail.com, tel.: +998905502968

Abstract. Education can never be separated from upbringing. In the process of education, the present and tomorrow day of our country, our nation, our ring are manifested. The role of the pedagogical team of each school of our country in solving important issues in the educational system is great. The reform of schools is primarily associated with the reform of pedagogical communities, taking their education of students to a new level. This article analyzes the effective management of the school pedagogical community and its main features and role in the organization of education and upbringing.

Keywords: pedagogical community, educational effectiveness, pedagogy, education, pedagogical activity, subject of management.

KIRISH

Bugungi O'zbekistonda ta'lim-tarbiya tizimini tubdan takomillashtirish maqsadida amalga oshirilayotgan demokratik islohotlar, fuqarolarimizning ongu tafakkurini o'zgartirishga qaratilayotgan Prezident Farmon va Qarorlarining ijrosini ta'minlash, ta'lim sohasida yuzaga kelayotgan muammo va kamchiliklarni bartaraf etish, eng muhimi maktab o'quvchilari qalbining muhandislari bo'lmish pedagoglarning jamiyatdagi o'rni va nufuzini oshirish davlatimiz siyosatining uzviy bo'g'ini sifatida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ta'lim tizimida pedagoglar jamoasining o'quvchilar jamoasi bilan ishlash layoqatlarini rivojlantirish, o'quvchilar jamoasiga ta'lim-tarbiya berish samaradorligini oshirishda ular orasidagi pedagogik-psixologik muhitni ifodalovchi ko'rsatkichlarni aniqlashtirish, pedagogik jamoaning jamoaviy munosabatlarni optimallashtirish, pedagogik va

o'quvchilar jamoasining a'zolarini pedagogik jihatdan qo'llab-quvvatlashda ilmiy, madaniy, ma'rifiy dunyoqarashni rivojlantirish kabi pedagogik tadqiqotlar amaliyotga tatbiq etilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI:

Boshqaruv va o'z-o'zini rivojlantirish sub'yekti sifatida pedagoglar jamoasi haqidagi zamonaviy g'oyalar pedagog olimlar L.N.Tolstoy, K.D.Ushinskiy, N.I.Pirogov va boshqalarning ta'lim va tarbiya munosabatlari, o'qituvchilar va talabalarning birgalikdagi faoliyati hamda pedagoglarning o'z-o'zini takomillashtirishi haqidagi g'oyalari ta'siri ostida shakllandi. Ta'lim va tarbiya maqsadlari muammosini ishlab chiqish zahirida pedagogik jamoalarning o'z-o'zini rivojlantirish hamda harakatining maqbul modellarini izlash boshlandi. Pedagoglarning ta'limiy va tarbiyaviy faoliyatlarini birlashtirish XX asrning 20-30 yillarida pedagogika va maktabning eng muhim vazifalaridan biri edi (N.K.Krupskaya; S.T.Shaskiy; A.S.Makarenko va boshqalar). "Pedagoglar jamoasi - deb yozgan edi A.S.Makarenko, - agar pedagoglar jamoada birlashmasa va jamoada yagona ish rejasi, yagona faoliyat, bolaga yagona aniq yondashuv bo'lmasa, ta'lim jarayoni bo'lishi mumkin emas" [1, 179].

Ta'lim-tarbiyani rivojlantirishda pedagog va o'quvchilar jamoasi orasidagi munosabatlar masalasi respublikamiz olimlaridan R.Ahlidinov, G.Boymurodova, R.Djurayev, O.Jamoldinova, M.Quronov, B.Xodjayevlarning ishlarida o'z ifodasini topgan. Pedagoglar bilan o'quvchilar jamoasi orasidagi shaxsga yo'naltirilgan ta'lim-tarbiya masalasi MDH olimlari L.Fridman, S.Rubinshteyn, G.Ksenzova, V.Singurova, V.Serikov, I.Kolesnikovalarning ilmiy tadqiqot ishlarida yoritilgan. Shaxsning o'quvchilar jamoasida ijtimoiy rivojlanishi masalalari G.Wegner, Clemente Franco, H.Schmidt, R.Sears, H.Widdel kabi pedagog, psixolog, faylasuf, sosiolog olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

TADDIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada mavzuga oid ilmiy manbalar, o'quv-me'yoriy hujjatlar, o'quv-metodik adabiyotlarni o'rganish va tahlil qilish, pedagogik kuzatuv, umumlashtirish, pedagogik eksperiment metodlaridan foydalanildi. Pedagogik

jamoaning ta'lim-tarbiya jarayonidagi o'rni va xususiyatlari muhokama qilindi. Pedagogik jamoa strukturasi va tarkibi tahlil qilindi.

TAHLILLAR VA NATIJALAR

Pedagogik jamoani rivojlantirish va birlashtirish g'oyalari V.A.Suxomlinskiyning pedagogik tizimida amaliy timsolini topdi. V.A.Suxomlinskiyning bir qator asarlarida tasvirlangan Pavlish o'rta maktabining tajribasi u tomonidan ishlab chiqilgan o'qituvchilar faoliyatini jamoaviy tashkil etish tamoyillarining asosililigini tasdiqladi. V.A.Suxomlinskiy har bir alohida maktabning pedagoglar jamoasi o'ziga xos xususiyatlarga ega ekanligini ta'kidladi [2, 127]. Tajriba almashish ma'lum bir maktab ishini nusxalashga emas, balki uning faoliyati g'oyalari va tushunchalarini baholashga olib kelishi kerak.

O'qituvchilarning pedagogik jamoasi ayni vaqtda o'quvchilar jamoasini ham ajralmas qism sifatida o'z ichiga olgan ijtimoiy jamoaning bir qismidir. Har qanday jamoaning xususiyatlariga rioya qilgan holda, maktab pedagogik jamoasi ham bir vaqtning o'zida o'ziga xos xususiyatlarga ega.

Pedagoglar jamoasining asosiy ajralib turadigan xususiyati *kasbiy faoliyatning o'ziga xos xususiyatlaridan*, ya'ni yosh avlodni o'qitish va tarbiyalashdan iborat. Pedagoglar jamoasining kasbiy faoliyatining samaradorligi uning a'zolarining pedagogik madaniyati darajasi, shaxslararo munosabatlarning tabiati, jamoaviy va individual javobgarlikni tushunish, tashkil etish hamda o'zaro hamkorlik darajasi bilan belgilanadi. Pedagogik, tarbiyaviy xarakterdagi ta'lim muassasalari jamoalari o'quvchilarga kattalar jamoasi, undagi munosabatlar tizimi, birgalikdagi faoliyat haqida dastlabki tasavvurlarni beradi. Bu holat pedagoglar jamoasini o'zini o'zi tashkil etishga, doimiy o'zini takomillashtirishga undaydi.

Pedagogik jamoaning pedagogik faoliyati maktab o'quvchilari jamoasi bilan yaqin hamkorlikda davom etadi. Pedagogik vazifalarni hal qilish pedagogik jamoaning o'quvchilar jamoasining ta'lim salohiyatidan qay darajada va qanday foydalanilishiga bog'liq [3, 59].

Boshqaruv fani va tizimli yondashuv kategoriyalarida pedagoglar jamoasi ham boshqaruvchi hamda boshqaruv tizimi bo'lsa, o'quvchilar jamoasi esa

boshqariladigan tizimdir. Faoliyat va aloqa subyekt sifatida shaxsga yo'naltirilgan ta'limning rivojlanishi sharoitida pedagogik va o'quvchilar jamoalari boshqaruv va o'z-o'zini rivojlantirish subyektlari sifatida harakat qilishlarini tan olish muhimdir. Pedagogik jamoa ulkan intellektual va ta'lim salohiyati tufayli nafaqat bolalar jamoasiga, balki o'ziga nisbatan ham ta'lim predmeti bo'lib xizmat qiladi. Maktab jamoasida rivojlanadigan subyekt-subyekt munosabatlari maktabning ta'lim tizimi sifatida hozirgi holatini to'liq tavsiflaydi.

Pedagogik jamoaning asosiy xususiyatini ochib berish uchun o'qituvchilik kasbining ko'p funksionalligini ta'kidlash lozim. Zamonaviy o'qituvchi bir vaqtning o'zida fan o'qituvchisi, sinf rahbari, to'garak rahbari, jamoat arbobi vazifalarini bajaradi. Alohida o'qituvchilar faoliyatining ko'p funksiyaliligi butun pedagogik jamoa faoliyatining ko'p funksiyaliligini belgilaydi. Kasbiy vazifalarini hal qilishda pedagogik jamoa maktabdan tashqariga ham chiqadi [4, 105]. Atrofdagi ijtimoiy muhitni pedagogizasiya qilish - ota-onalar va umuman jamiyatning pedagogik madaniyatini shakllantirish pedagogik jamoaning ajralmas funksiyasiga aylanadi. Ba'zi o'qituvchilar pedagogik faoliyatda tadqiqot funksiyasini faol amalga oshirish bilan ajralib turadi. O'qituvchi-tadqiqotchi bugungi kunda normativ faoliyat chegaralaridan tashqariga chiqqan, pedagogik innovasiyalarning afzalliklari va kamchiliklarini nozik tarzda qamrab oladigan, yangi qadriyatlar va texnologiyalarni o'zi o'zlashtira oladigan, yaratadigan va amalga oshira oladigan o'qituvchidir.

Pedagogik jamoaning yana bir xususiyati uning o'zini o'zi boshqarishning yuqori darajasidir. Pedagogik jamoa hayoti va faoliyatining asosiy fundamental masalalari boshqaruvning turli darajalarida muhokama qilinadigan asosiy mavzudir. Buni maktab kengashi, pedagogik kengash, uslubiy komissiyalar va jamoat tashkilotlari faoliyati tasdiqlaydi. Oddiy o'qituvchilarga vertikal vakolat berish mustaqillik va tashabbusni rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi. Qoida tariqasida, pedagogik jamoa a'zolarining, uning rahbarlarining funksional majburiyatlari aniq belgilangan, lavozim tavsiflari majburiydir, nazorat va o'zini o'zi boshqarish shakllari ishlab chiqilgan.

Pedagogik jamoa faoliyatining xususiyatlaridan biri bu ishning jamoaviy tabiati va pedagogik faoliyat natijalari uchun jamoaviy javobgarlikdir. Yakka tartibdagi har qanday o'qituvchining, ayniqsa o'rta va yuqori darajadagi ta'limning individul sa'y-harakatlari, agar professional o'qituvchining faoliyati maktab pedagogik jamoa harakatlari bilan muvofiqlashtirilmagan bo'lsa, maktab faoliyatini samarali tashkil etishda, o'quvchilarning bilim sifatini baholashda harakatlarning birligi, talablari bo'lmasa, yuqori samaradorlikka erishib bo'lmaydi. Pedagogik jamoani a'zolari birlashtirish, ularni umumiy qadriyatlar ostida rivojlanishini ta'minlash boshqariuvning asosiy maqsadlaridan biri bo'lishi lozim. O'qituvchilarning birligi qadriyat yo'nalishlari, qarashlari, e'tiqodlarida namoyon bo'lishi mumkin, ammo bu pedagogik faoliyat texnologiyasida bir xillikni anglatmaydi. Bolaga muhabbat, uni o'rgatish istagi, shaxsga hurmat, pedagogik ijodkorlik, optimistlik, umumiy va kasbiy madaniyat kabi pedagogik qadriyatlar o'qituvchilar harakatlarining birligi asosini yaratadi.

Pedagogik jamoa faoliyati xususiyatlari qatoriga pedagogik ishlarning ayrim turlarini bajarish uchun ma'lum vaqt bilan chegaralanmaganligini ham kiritish kerak. Pedagoglarning ortiqcha ish yuklamalari sababli ularning kasbiy o'sishlari, ma'naviy o'sishlari uchun zarur bo'sh vaqt yetishmasligiga olib keladi. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, bir qator moddiy va vaqt omili sababli ularning turli adabiy janrlardagi adabiyotlar va davriy nashrlarni o'qishi, o'qituvchilarning kinoteatrlar, muzeylar va ko'rgazmalarga tashriflari soni keskin kamaygan.

Pedagogik jamoaning yana bir o'ziga xos xususiyati uning asosan ayoldan tashkil topganligi bo'lib, jamoada yuzaga keladigan munosabatlarning tabiatiga ta'sir qilmasligi mumkin emas. Aksariyat qismi ayollardan tashkil topgan jamoalar asosan erkak vakili ko'proq bo'lgan o'quv jamoalariga qaraganda ko'proq hissiy, kayfiyat o'zgarishiga moyil, ziddiyatliligi bilan ajralib turadi. Ammo shuni yodda tutish kerakki, ayollar o'zlarining tabiatiga ko'ra ta'lim-tarbiya faoliyatiga ko'proq moyil, pedagogik ta'sir usullari va vositalarini tanlashda yanada moslashuvchan bo'ladilar.

Pedagogik jamoalarning feminizasiyasi yangi muammo emas. So'nggi yillarda pedagogik jamoalarning erkaklar qismining boshqa faoliyat sohalariga, asosan moddiy sabablarga ko'ra sezilarli darajada chiqib ketishi tufayli yanada keskinlashdi. Shu bilan birga, V.A.Suxomlinskiy, A.Zaxarenko, V.A.Karakovskiy, V.S.Poderyagin, Ye.I.Petrenko, A.Kirillova va boshqalarning maktablari tajribasini o'rganish shuni ko'rsatadiki, pedagogik jamoada ikkala jinsning zarur nisbati pedagogik jarayonning uyg'unligi va yaxlitligini ta'minlaydi. Maktab hayotining ushbu muammosi so'nggi yillarda otasiz oilalar sonining sezilarli darajada ko'payishi tufayli ham dolzarb bo'lib kelmoqda. Pedagogik jamoasidagi erkaklar va ayollarning optimal nisbati haqidagi savolga aniq javob berish juda qiyin. Har holda, u o'ziga xos tarzda hal qilinadi. Ammo maktabda erkak pedagoglarning yetishmasligi o'quvchilarning ota-onalarini, ishlab chiqarish jamoalari a'zolarini maktab soatlaridan tashqari tarbiyaviy ishlarga jalb qilish orqali qoplanishi kerakligi aniq.

XULOSALAR

Xulosa qilib shuni ta'kidlash kerakki, pedagogik jamoaning samarali boshqarilishi o'quvchilar jamoasiga ta'lim-tarbiya sohasidagi o'zaro ta'siri samarasini oshiradi. Pedagogik jamoani samarali boshqaruvini tashkil etishda esa uning xususiyatlarini diqqatga olmasdan tashkil etish kutilgan natijalarni bermaydi. Pedagogik jamoa xususiyatlarini tadqiq etish orqali rahbar kadrlarning jamoaga ta'siri doirasini kengaytiradi, bu esa maktab ishlarini samarali tashkil etishni yuqori darajasidir. Pedagogik jamoa hayoti va faoliyatining asosiy fundamental masalalari boshqaruvning turli darajalarida muhokama qilinadigan asosiy mavzudir. Buni maktab kengashi, pedagogik kengash, uslubiy komissiyalar va jamoat tashkilotlari faoliyati tasdiqlaydi. Oddiy o'qituvchilarga vertikal vakolat berish mustaqillik va tashabbusni rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi. Qoida tariqasida, pedagogik jamoa a'zolarining, uning rahbarlarining funksional majburiyatlari aniq belgilangan, lavozim tavsiflari majburiydir, nazorat va o'zini o'zi boshqarish shakllari ishlab chiqilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. Makarenko A. S. Soch.: V 7 t.- M., 1958. -T 5.
2. Suxomlinskiy V.A. Razgovor-s molodym direktorom shkoly. M., 1973 g.
3. Basarov B.B. Psixologiya deyatelnosti i syennostnoy posledovatyelnosti jizni kollektiva. - M., 2000 g.
4. Selivanova N. Kollektiv v sovremennoy shkole: nujen li on? // Narodnoye obrazovaniye №2, 2004 g.